ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 97— *104*

TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI, ETNODIALEKTAL BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TALQINI

Raxmanov Botir[1]

Abstrakt

Til va madaniyat tushunchasi ko‘p funktsiyali, unga madaniyatshunos, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunoslik sohasi olimlari o‘rtasida turlicha qarash va munosabat mavjudligini ko‘rish mumkin. Til va madaniyat har bir xalqning aql idroki, turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan stereotiplarning vujudga kelishi uchun asos bo‘ladi. Stereotiplar xalqning borliqni idrok etishi, undan xulosa chiqarishi va amalda foydalanishi asosida vujudga keluvchi his-tuyg‘ular majmui. Ayonki, lingvokulturologiya fanining asosiy maqsadi xalq madaniyatini tilda yorqin aks ettirish. Ya’ni bunga: etnografizmlar (*xolaslamoq, betochar,oshxudayi*), lakunalar (*bobochaqirish, qo‘rliq, digdika, qonjaloq*), ekzotizmlar (*sari, sarpo*, *gashtak*) va til birliklarning miflashgan ko‘rinishlari – arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o‘z aksini topgan rasm-rusm va odat, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o‘xshatish va metaforalar hamda o‘zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, etnografizm, dialektal leksika, lingvomadaniy birlik, ekzotizmlar, miflar, etnografik birliklar.

XX asr oxiriga kelib jahon tilshunosligida qator lingvistik yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Bu – kognitiv lingvistika (kognitiv tilshunoslik), etnolingvistika, til antropologiyasi, lingvokulturologiya, etnogermenevtika, pragmalingvistika, genderologiya kabi yangi yo‘nalishlar. Bu yo‘nalishlarning mohiyatida tilni milliy-madaniy, gender va kognitiv aspektda o‘rganish yotadi. So‘nggi yillarda ijtimoiy va boshqa omillar zarurati natijasi o‘laroq dunyo tilshunosligida lingvokulturologik sathdagi ilmiy izlanishlar salmog‘i oshdi. Ayniqsa,

[1]*Raxmanov Botir* – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.v.b.
E-pochta: botirraxmanov8@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-2758-1095
Iqtibos uchun: *Raxmanov B.A.* 2025. “*Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini*”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 2: 97-104. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/DESL4121

Evropa va Rossiya olimlari tomonidan lingvokulturologiyaga oida samarali tadqiqotlar yaratildi. Shunga qaramay, lingvokulturologiya va fanga oid terminlar mualliflar tomonidan aksariyat hollarda aniq asoslab berilmadi. Natijada, lingvokulturologik kategoriyalarni tushunarsiz, ba'azan chalkash holatda qo'llash holatlari ham mavjud. Oxirgi yigirima yil ichida bu yo'nalishlar (asosan, lingvokulturologiya va lingvokognitologiya) o'zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Hozirda lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) – lingvistik tadqiqotlar orasida etakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. U tilning ruhidan, lisoniy mentallik bilan bog'liq u yoki bu hodisalardan kelib chiqib, nutqiy muloqot tuzilishining milliy madaniy o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganadi. Tilda aks etgan milliy ruhni ko'rsatadi. Masalan, V.N.Teliya va uning ilmiy maktabidagi tadqiqotlar asosini frazeologizmlar maqsadi esa milliy-madaniy konnotatsiyalar va "mentalitetning xarakterli chiziqlari"ni tavsiflash tashkil etadi[Телия, 1996; 284].

Olamning lisoniy manzarasi turli ranglar, obrazli metaforik vosita, o'xshatish, konnotativ so'z, stereotip, ramz va boshqa vositalar asosida yaratiladi. Har bir til o'zida shu til egalarining dunyoqarashini aks ettiradigan va olam manzarasini vujudga keltiradigan xususiyatlar majmuini jamlaydi. Tilshunos N.Xomskiy til strukturasi va semantikaning botiniy xususiyatini tabiiy-genetik asosda tutashtiradi[Хомский, 1972; 259].

Til va madaniyat tushunchasi ko'p funktsiyali, unga madaniyatshunos, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunoslik sohasi olimlari o'rtasida turlicha qarash va munosabat mavjudligini ko'rish mumkin. Bunda masalaning tilshunoslikka oid qismi ikki tomonli, sababi, til va madaniyat o'zaro munosabatda bo'ladi. Shu asosda, o'rinli savol tug'iladi. Birinchidan turli madaniy hodisalar til bilan qay holatda munosabatga kirishadi? Ikkinchidan, madaniyatga til qanday holatda ta'sir qiladi? Rus tilshunosi G.O.Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi[Винокур, 1959;211]" degan fikri yuqoridagi savolga qisman javob bo'la oladi. I.Gerder esa "inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'lagan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi", degan edi[Винокур, 1959; 211].

Jahon tilshunosligida "til va madaniyat" muammosi bilan ko'p va xo'p shug'ullangan olim mashhur tilshunos va madaniyatshunos E.Sepirdir (1884- 1939). E.Sepirning "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlari" da til va

madaniyat masalalariga oid muhim hamda o‘tkir fikrlar bildirilgan. Olimning fikricha, madaniyat – turmush tarzimizni tavsiflovchi, ijtimoiy meros qilib olingan amaliy malakalar va g‘oyalar majmui. Sepirning yana bir qarashiga ko‘ra, madaniyat – jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan qadriyatlarning tanlab olinishi. Madaniyat xatti-harakatlar bilan qiyoslanadi. Til oldin paydo bo‘lganmi yoki madaniyat degan savolga Sepir til madaniyatdan oldin paydo bo‘lgan, chunki til madaniyatga nisbatan ma’no ifodalovchi vosita sanaladi, deya munosabat bildirgan. Til milliy madaniyat mavjudligi va uning ifodalanishining asosiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin Sepirga ko‘ra, til ijtimoiy va madaniy rivojlanish inikosi. Til madaniyatning ijtimoiylashgan qismidir[Винокур, 1959; 23]. Til va madaniyatning birdamligi nimada? degan savolga olim shunday javob beradi. Jamiyatning nima qilishi va nimani o‘ylashiga qarab madaniyatni, qanday o‘ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin. Til va madaniyat o‘zaro qanday ta’sir qiladi? Til madaniyatga nisbatan madaniyatni to‘plash va uni meros qilish kumulyativ xususiyatiga ega bo‘ladi. Sepirning ta’kidlashicha, madaniyatni asrab qolishning asosiy tamoyillaridan biri – maqollar, diniy kalimalar, xalq rivoyatlari, nasl-nasab shajarasi hisoblanadi[Винокур, 1959; 57].

Til va madaniyat masalasi juda serqirra va murakkab bo‘lganligi bois unga har xil qarash hamda yondashuvlar ko‘p. Xususan, E.Sepir va B.Uorf maktabi ilgari surgan qarashlarda insonlar olamni o‘z ona tillari vositasida turlicha ko‘rishi e’tirof etiladi[Уорф, 1960; 174].

O‘zbek tilshunosligida ham til va madaniyat tushunchalariga nisbatan turlicha qarash va o‘lchov mavjud. Xususan, N.Mahmudov mazkur voqeylikka quyidagicha yondashadi. “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki, aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati) emas, balki kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati) demakdir”[Маҳмудов, 2012;10].

Taniqli tilshunos olima Z.Xudoyberganovaning fikricha esa til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasi. U ruhimizning borlig‘i, madaniyatimizning ko‘rinishi. U milliy mentallikning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi[Худойберганова, 2016;32]. Yana bir olim A.Ashirov til va madaniyat masalasiga o‘ziga xos yondashib etnomadaniy tamoyillar asosida quyidagilarni bayon

etgan: “Shunga koʻra har bir xalqning urf-odatlari, yashash tarzi bilan bogʻliq madaniyati boʻladi va u, birinchi navbatda, tilda aks etadi. Til va madaniyatning bu xildagi oʻzaro bogʻliqligi ularning har ikkalasining ham tabiiy hodisa ekanligi bilan belgilanadi. Madaniyat ham til singari qadimiy va har bir etnosning oʻziga xos etnomadaniyatini vujudga keltiradi. Etnomadaniyat esa ma’lum etnosga xos xususiyatlarni saqlab qolish maqsadiga oʻzlashtirilgan koʻrinishlar majmui”[Худойберганова, 2016;32].

Til va madaniyat har bir xalqning aql idroki, turmush tarzi bilan bogʻliq boʻlgan stereotiplarning vujudga kelishi uchun asos boʻladi. Stereotiplar xalqning borliqni idrok etishi, undan xulosa chiqarishi va amalda foydalanishi asosida vujudga keluvchi his-tuygʻular majmui. Stereotiplar sifatida shaxs, narsa, urf-odatlar asosida ham shakllanadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish kerakki, til va madaniyat oʻrtasidagi muhim tugunlardan biri – xalqlarga xos milliy mental belgi, urf-odat va an’analar hamda ularning nomlanishi. Har bir xalq ming yillar davomida oʻzlaridan ulkan madaniy meros qoldiradi ularni kelajak avlodga meros qilib qoldirish uchun turli usuldan foydalanadi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarning avloddan avlodga oʻtib kelishi shu usullardan biri. Minglab etnografizmlarni oʻzida mujassamlashtirgan xalq madaniy merosini saqlab qolish har bir davrda ham dolzarb va murakkab boʻlgan. Oʻzbek xalqi ham boy madaniy merosi va etnografik xilma-xilligi bilan dunyo xalqlari orasida alohida ajralib turadi. Bizga ma’lumki, til va madaniyatni oʻrganuvchi asosiy fan bu lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik). Soʻnggi yillarda oʻzbek tilshunosligida ham lingvomadaniy tadqiqotlar koʻlami kengayib bormoqda. Yurtimizning turli mintaqalarida mahalliy etnografizmlarni tadqiq etish ishlari ancha “jonlanib” qolgan. Ayniqsa, chekka-chekka qishloqlarimizda saqlanib kelayotgan noyob an’ana va qadriyatlar, kasb-hunar va ular bilan bogʻliq marosimlar, urf-odatlar, jonli soʻzlashuv tilida saqlanib kelayotgan minglab maqol, matal, aytim va iboralarni saqlab qolish va yigʻib olish va ularni lingvomadaniy aspektda tadqiq etish boʻyicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, motam va toʻy marosimlari bilan bogʻliq lingvomadaniy ishlar hududlar kesimida keng tadqiq etilmoqda. Xususan, Surxon vohasi etnomadaniy birliklarini oʻrganish borasida ham talay ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi. N.Amonturdiev, N.Kurbonazarova kabi tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham ancha salmoqli.

Madaniyat insonlarning ma’lum bir jamoasiga mansub moddiy va ma’naviy qadriyatlarini birlashtiradi va bir milliy jamoaning boshqasida umuman yoʻq boʻlgan yoki ular bilan sezilarli darajada farq qiladigan qadriyatlarini milliy ijtimoiy-madaniy fondini tashkil etadigan tushunchalarni

o‘zida namoyon etadi[Виноградов, 2004;240].

Ayonki, lingvokulturologiya fanining asosiy maqsadi xalq madaniyatini tilda yorqin aks ettirish. Ya’ni bunga: etnografizmlar (*xolaslamoq, betochar,oshxudayi*), lakunalar (*bobochaqirish, qo‘rliq, digdika,qonjaloq*),ekzotizmlar(*sari,sarpo*,*gashtak*)vatilbirliklarning miflashgan ko‘rinishlari – arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o‘z aksini topgan rasm-rusm va odat, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o‘xshatish va metaforalar hamda o‘zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi.

Tilshunos A. Abduazizov lingvokulturologiyaga quyidagicha izoh beradi: lingvokulturologiya – til va madaniyat, o‘zaro madaniy masalalarni ilmiy tadqiq etadi. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisa, milliy kontsept, dunyoni til orqali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi. Dunyoning til xaritasi, umuman, ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan mos keladi. Bu masalani kengroq va chuqur ilmiy o‘rganish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog‘liq. Til va madaniyatning mushtarakligi, aloqadorligi – isbot talab qilmaydigan haqiqat. Chunki har qanday tilda o‘sha millat madaniyatining manzarasi aks etishiga shubha bo‘lmasligi kerak. Til va madaniyatni tadqiq etuvchi lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishuvida shakllangan fan uning vazifasi til orqali ifodalangan madaniyatni o‘rganish. An’anaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o‘zaro ta’siri masalasi ba’zi lingvistik masalalarni echishda madaniyat haqidagi muayyan tasavvurlar bilan cheklangan bo‘lsa,lingvokulturologikyondashuvdatilo‘zbirliklaridamadaniyatni saqlaydigan, atrof va kelajakka uzatadigan yaxlitlik sifatida tahlilga tortiladi. Sof milliy mulk hisoblanuvchi har bir ma’noli lisoniy hodisa esa shakl va milliy mazmun mushtarakligida o‘rganiladi. Tilshunos olim Sh.Safarovning fikricha har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma’lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. To‘g‘ri ta’kidlanganidek, kishilar nutqida qo‘llanadigan leksik birliklar ularning qay darajada nutq madaniyatiga egaligini tasdiqlaydi. Insonning nutq madaniyatiga u yashab, istiqomat qilayotgan jamiyat, muhitda barqarorlashgan madaniyat bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat – murakkab, serqirra va rang-barang tushuncha. Butun jamiyat muayyan hudud va davrda istiqomat qilgan kishilarning umumiy moddiy va ma’naviy boyliklarini o‘zida mujassamlashtiradi. Jamiyat ongida kishilar yaratgan madaniyat va ishlab chiqarish munosabatlaridan iborat yaxlit sistema barqarorlashadi. Jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari madaniyat rivoji va inson takomiliga, inson kamoloti esa, o‘z navbatida, mazkur munosabatlar va madaniyatning yuksalishiga sababchi bo‘ladi. Har qanday madaniyat, avvalo, milliy

tabiatiga ega bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan umuminsoniy tus olishi – global xarakter kasb etishi shubhasiz. Demak, umumiy madaniyat mavjud emas, har bir madaniyat muayyan jamiyat, millat ijtimoiy amaliyotining o‘ziga xos usullari majmuini o‘zida aks ettiradi.

Aytish joizki, Surxondaryo etnografizmlari leksik, frazeologik va paremiologik birliklar, shuningdek, o‘xshatish, ramz, stereotiplar lisoniy kontsept unsurlari sifatida inson, ong, faoliyat kontseptlari bilan munosabatga kirishib, o‘zida til va madaniyat mushtarakligini namoyon qiladi. Bu mushtaraklik lingvokulturologik jihatdan o‘rganilgan taqdirdagina yanada oydinlashadi. Tan olish kerak, til va madaniyat mavzusini tilshunoslikda yanada ommalashuvida V.fon Humboldtning xizmatlari beqiyos. V.Humboldt kontseptsiyasining mazmun-mohiyati shundan iborat ediki, uning ta’biricha, moddiy va ma’naviy madaniyat tilda mujassamlashadi. Til inson va uni o‘rab turgan dunyo o‘rtasidagi bog‘lab turuvchi halqa hisoblanadi. Uning “til – xalq ruhiyati ifodasi” kontsepti til va madaniyat haqidagi nazariyani bir pog‘ona yuqoriga ko‘targanligini e’tirof etish kerak. Haqiqatan, til orqali jamiyatning, xalq, millatning ruhiyati shakllanadi, rivojlanadi va barqarorlashadi. Lingvist V.fon Humboldtning nazariy qarashlari ta’sirida XIX asrning ikkinchi yarmida A.Potebnya til va xalq ruhiyatining aloqadorligini o‘rgandi. U tilni madaniyat va xalq ma’naviy dunyosining tashkil etuvchisi sifatida baholadi. XX asrga kelib Amerikalik lingvist E.Sepir o‘z tadqiqotlarida til va madaniyat mushtarakligini yangicha talqinda tavsifladi. Uning fikricha, “til madaniyatdan uzilgan holda yashamaydi. Til – xalq madaniyatining ko‘rsatkichi, chunki uning leksikasida ma’lum darajada o‘zi xizmat qilayotgan xalqning madaniyati aniq tasvirlangan bo‘ladi”[Сепир, 1993; 655].

XX asrning so‘nggi choragida tilshunoslikda “til – madaniyat mahsuli” ta’rifi etakchilik qildi. Darvoqe, til madaniyat mahsuli. Shuningdek, tilda o‘sha milliy-madaniy xususiyatlar aks etishi haqiqat. Shu nuqtai nazardan, tilning ajdodlardan etib kelgan madaniyatni saqlab, keyingi avlodlarga etkazishda vorisiylikni ta’minlashdek muhim vazifani bajarishini ham unutmaslik kerak.

Adabiyotlar

Телия В.Н. *Русская фразеология*. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.

Хомский Н. *Аспекты теории синтаксиса.* – М.: Издателство Московского университета, 1972. – С. 259

Винокур Г.О. *Избранные работы по русскому языку*. – М.: Учпедгиз, 1959. – С. 211.

Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – М.: Наука, 1977. – С. 233.
Уорф Б.Л. *Отношение норм поведения и мышления к языку. Новое в зарубежной лингвистике*. – М., 1960, вып. 1. – С. 174.
Маҳмудов Н. *Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб*... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012, – № 5. –10 б.
Худойберганова З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. “Олий таълим” – Т., 2016. 1-сон, 32 б.
Ashirov A. Etnologiya. Yangi nashr. – Toshkent, 2014. – Б. 171.
Виноградов В. С. Перевод: Общие и лексические вопросы: учебное пособие. – М.: КДУ, 2004. – 240 с. , 27

THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE, LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF ETHNODIALECTAL UNITS

Raxmanov Botir [1]

Abstract

The concept of language and culture is multifunctional, and it can be seen that there are different views and attitudes towards it among cultural scientists, linguists, philosophers, psychologists, ethnographers and scholars in the field of literary studies. Language and culture are the basis for the emergence of stereotypes associated with the intellectual perception and lifestyle of each people. Stereotypes are a set of feelings that arise on the basis of the people’s perception of existence, drawing conclusions from it and using it in practice. Obviously, the main goal of the science of linguoculturology is to vividly reflect the culture of the people in the language. That is, it includes: ethnographic expressions (*xolaslamoq, betochar, oshhudayi*), lacunae (*bobochaqirish, qo‘rliq, digdika, qonjaloq*), exoticisms (*sari, sarpo, gashtak*) and mythological manifestations of linguistic units - archetypes and myths (legends and legends), patterns and customs reflected in the language, paremiological fund of the language, language stan-

[1]*Rakhmanov Botir* – Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Termez University of Economics and Service.
E-pochta: botirraxmanov8@gmail.com
ORCID ID : https://orcid.org/0009-0003-2758-1095
For citation: *Rakhmanov B.A.* 2025. “*The relationship between language and culture, linguocultural interpretation of ethnodialectal units”.* Uzbekistan: language and culture:2. 97-104. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/DESL4121

dards, gestures and symbols, analogies and metaphors in the language, as well as Uzbek speech habits and speech etiquette forms.

Key words: Language, culture, ethnography, dialectal lexicon, linguocultural unity, exoticisms, myths, ethnographic units.

References

Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.

Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. – М.: Издателство Московского университета, 1972. – С. 259

Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1959. – С. 211.

Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – М.: Наука, 1977. – С. 233.

Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку. Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1960, вып. 1. – С. 174.

Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012, – № 5. –10 б.

Худойберганова З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. “Олий таълим” – Т., 2016. 1-сон, 32 б.

Ashirov A. Etnologiya. Yangi nashr. – Toshkent, 2014. – Б. 171.

Виноградов В. С. Перевод: Общие и лексические вопросы: учебное пособие. – М.: КДУ, 2004. – 240 с. , 27

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com